

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Fattoxov Ibaydullo Ibroxim o'g'li

ibaydullofattoxov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Innovatsion strategiyaning korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, texnologik rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion strategiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimlashtirilib, texnologik modernizatsiya, innovatsion salohiyat, inson kapitali, bozor talabi, eksport yo'nalishi va ekologik barqarorlik asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida ajratilgan. Shuningdek, O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalari, xususan, "BAKAN TEX" MCHJ faoliyati misolida innovatsion strategiyaning amaliy jihatlari tahlil qilinib, korxonalarda innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion strategiya, sanoat korxonasi, innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya.

Bugungi kunda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va uzoq muddatli innovatsion strategiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor sharoitlarining tez o'zgarishi, texnologik yangilanishlarning jadallashuvi, xalqaro raqobatning kuchayishi hamda iste'molchilar talablarining diversifikatsiyalashuvi korxonalardan mavjud resurslardan foydalanish bilan bir qatorda yangi texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlarini muntazam joriy etishni talab qilmoqda.

Innovatsion strategiya korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u texnologik, tashkiliy, marketing va boshqaruv innovatsiyalarini yagona strategik yo'nalishga birlashtirish imkonini beradi. Innovatsion faoliyatni strategik boshqarish masalalari J. Schumpeter, P. Drucker, M. Porter, H. Chesbrough kabi olimlarning ilmiy qarashlarida turli jihatlardan tadqiq etilgan. Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida ko'rib, yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor va yangi ishlab chiqarish usullarining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini asoslagan.³⁵

Innovatsion strategiya korxonaning mavjud va istiqboldagi innovatsion

³⁵ Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.



imkoniyatlaridan foydalanish orqali uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga qaratilgan strategik boshqaruv vositasi sifatida qaraladi. Bunda strategik qarorlar korxonaning ichki imkoniyatlari bilan tashqi muhit talablari o'rtasidagi muvozanatga asoslanishi lozim.

M. Porterning raqobat strategiyasi haqidagi yondashuvlaridan kelib chiqib, innovatsiyalar korxona uchun xarajatlarni kamaytirish, mahsulot differensiasiyasi yoki yangi bozor segmentlarini egallash orqali raqobat ustunligini yaratishi mumkin.³⁶

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishda bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlarni hisobga olish zarur.

1.1 rasm. Innovatsion strategiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari³⁷

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishda texnologik, tashkiliy, inson kapitali, bozor va ekologik omillarni o'zaro uyg'un holda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishlar korxonaning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan. Ularning kompleks ravishda amalga oshirilishi korxonaning zamonaviy bozor talablariga moslashishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion strategiyani shakllantirish mexanizmi korxonaning mavjud holatini baholash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, ustuvor innovatsion yo'nalishlarni belgilash, zarur resurslarni taqsimlash hamda strategiya natijalarini monitoring qilish bosqichlariga asoslanadi. Mazkur mexanizm strategiyani doimiy ravishda takomillashtirib borish va bozor hamda texnologik o'zgarishlarga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Innovatsion strategiyaning samaradorligi faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki korxonaning innovatsion salohiyati, inson kapitali, bozor imkoniyatlari, eksport salohiyati, ekologik talablar va mavjud resurslarning strategik maqsadlar bilan uyg'unligiga bog'liq.

Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida texnologik modernizatsiya, innovatsion salohiyatni rivojlantirish, inson kapitalini kuchaytirish, eksport va bozor diversifikatsiyasi hamda ekologik barqarorlikni ajratish mumkin. Shuningdek, innovatsion strategiyani shakllantirishda diagnostika, strategik muhitni baholash, ustuvor yo'nalishlarni tanlash, resurslarni taqsimlash va natijalarni monitoring

³⁶ Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.

³⁷ Muallif ishlanmasi



qilishdan iborat ketma-ket mexanizmni qo'llash maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu yondashuvni korxonalarning raqamli tayyorgarligi va innovatsion salohiyati bilan bog'lash orqali innovatsion strategiyani tanlashning yanada aniq metodikasini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
2. Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
3. Innovation strategy, digital transformation and competitive advantage of manufacturing enterprises: evidence from China // *European Journal of Innovation Management*. 2024. Vol. 28, Issue 8. P. 3395–3417. DOI: 10.1108/EJIM-09-2023-0786.
4. OECD/Eurostat. *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation*. 4th Edition. OECD Publishing, Paris, 2018.
6. Chesbrough H. *Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology*. Harvard Business School Press, 2003.